



USE OF ACTIVE METHODS OF TEACHING IN ORGANIZATION OF MOTHER TONGUE EDUCATION

Feruza Islomova

Lecturer

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: speech competence, linguistic competence, sociocultural competence, pragmatic competence, teaching methods

Abstract: The article examines the importance of specific competencies and teaching methods that are formed in the process of learning the subject.

Received: 28.06.22

Accepted: 30.06.22

Published: 02.07.22

ONA TILI TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA O'QITISHNING FAOL USULLARIDAN FOYDALANISH

Feruza Islomova

o'qituvchi

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, sotsiokulturologik kompetensiya, pragmatik kompetensiya, ta'lim metodlari

Annotatsiya: Maqolada o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida shakllantiriladigan xususiy kompetensiyalar va ta'lim metodlarining ahamiyati tadqiq etilgan.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В ОРГАНИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Феруза Исломова

преподаватель

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: речевая компетенция, языковая компетенция, значение конкретных компетенций и

Аннотация: В статье рассматривается

социокультурная компетентность, методов обучения, которые формируются в
прагматическая компетентность, методика процессе изучения предмета.
обучения

KIRISH

Ma'lumki, milliy til har bir millatning ma'naviyati, ruhiyati, qadri va g'ururini ko'rsatadigan bebaho xazinadir. Avlodlarga milliy urf-odat, qadriyatlarni bebaho ma'naviy xazinamizni yetkazib berish vositasi sifatida ham qimmatlidir. "Milliy madaniyat", "milliy ma'naviyat", "milliy tafakkur" tushunchalarini ona tilisiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Shunday ekan, oldimizda ana shu ona tilimizni sof holda saqlash, o'quvchilarga bor go'zalligi va latofati bilan o'rgatish, ularga o'z ona tili bilan faxrlanish tuyg'ularini singdirish, mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrlarini ona tilida erkin va tinglovchiga tushunarli, ta'sirli tarzda bayon qilib bera olish ko'nikmalarini shakllantirish vazifasi turadi.

ASOSIY QISM

Maktab ta'limi tarixida nimani o'qitish va qanday o'qitish masalalari asosiy muammolardan biri bo'lib keldi va shunday bo'lib kelmoqda. Bular garchi alohida alohida masalalar sanalsa-da, ammo aslida bir-biri bilan chambarchas bog'langandir. Ta'lim samaradorligi ma'lum darajada mana shu ikki masalaning o'z yechimini to'g'ri topa olishi bilan belgilanadi. Ona tili ta'limida nimani qanday o'qitish ko'plab bahs va izlanishlarga sabab bo'lib kelmoqda. "Ona tili ta'limi haqida gap ketganda,- deb yozadi, taniqli tilshunos olim N.Mahmudov-, aksariyat mutaxassislar, hatto nomutaxassislar grammatikadan voz kechishning samarador yo'l ekanligini asoslamoqchi bo'ladilar. Albatta, maktab ta'limida grammatika muayyan me'yorda bo'lmog'i lozim, ammo undan butunlay voz kechish aqlning ishi emas. Grammatika tilning faqat shakliga emas, balki uning mohiyatiga dahldor, tafakkurning shakllanishiga aloqador butun bir olam."

Bundan kelib chiqadiki, tilni o'rgatish inson tafakkuri shakllanishi bilan bog'liq holat ekan, umumta'lim maktablarida ona tilini samarali usullar yordamida tashkil etish zamon talabi, ijodiy tafakkur sohibini, ya'ni, o'sayotgan, rivojlanayotgan va taraqqiyot sari yuz. tutayotgan mamlakatimiz uchun zarur bo'lgan, ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish ona tili ta'limi oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu boradi o'qitishning innovatsion usullaridan foydalanib darslarni tashkil etish yaxshi samara beradi. "Ven diagrammasi", "Keys stadi", "Pinbord", "Ikki qismli kundalik", FSMU, Sinkveyn kabi usullar o'quvchini mustaqil fikrlash, fikrlarni yozma va og'zaki tarzda to'g'ri bayon qilib bera olish qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'quvchining mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini yuzaga chiqaradi. O'quvchini darsda passiv, faqatgina o'qituvchining ko'rsatmalarini bajaradigan

tinglovchidan ko'ra, topshiriqlarni "o'z boshidan o'tkazib" bajaradigan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Ayniqsa, ona tili va adabiyot darslari inson ruhiy olamini, ichki kechinmalarini, tafakkur darajasini, nutq madaniyatini o'stiruvchi, bir so'z bilan aytganda shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi soha ekanligi sababli ham jonli, o'quvchini qiziqtiradigan bo'lishi shart. "Muharrir", "Rolli o'yinlar", "O'z pozitsiyangni egalla" kabi usullar o'quvchida milliy tafakkuri rivojlanishida, o'z fikrini ham og'zaki, ham yozma tarzda erkin va tushunarli bayon qilib bera olish ko'nikmalarini shakllantirishda samaralidir. Zamonaviy ta'limda ona tili darslarida esse metodidan foydalanish o'quvchining ham og'zaki, ham yozma nutqini shakllantirishda samarali natija bermoqda.

Esse hajmi taklif qilingan mavzudagi 1000 so'zdan 5000 so'zgacha bo'lgan asardir. Esse – bu muallifning alohida individual pozitsiyasiga ega erkin shakldagi bayon bo'lib, qandaydir buyum yoki qandaydir sabab bo'yicha umumiy yoki oldindan bildirilgan fikr-mulohazalardan iboratdir. Dalillangan esse bu qo'yilgan savolga dalillangan javob mavjud bo'lgan yozma ishdir. O'quvchi muayyan pozitsiyaga ega va uni himoya qiladi, o'z pozitsiyasini quvvatlash uchun bir qator dalillarni taqdim etadi. Maqsad – o'quvch o'zi qo'llaydigan nuqtai nazarga boshqalarni ham ishonтира olishi.

Dalillangan essening tuzilishi:

- Masala yuzasidan o'quvchining nisbiy nuqtai nazarini bildirish (1 xatboshi).
- Aytilgan pozitsiyaning dalillanishi – o'quvchining shu pozitsiyani qo'llash uchun ishonarli dalillari bunday pozitsiyaniqabul qilishga ishonтираadi.

- Xulosa

Dalillangan essenini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari:

- mazmunning mavzuga muvofiqligi;
- muammoni ko'rish, unga munosabat, o'zining nuqtai nazari, dalillarning ishonchliligi;
- uslub: bayonning aniqligi, ochiq-ravshanligi;
- yozish qoidalariga rioya qilish.

Besh daqiqali esse – o'rganilayotgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o'quv mashg'uloti oxirida 5 daqiqa oralig'ida o'tkaziladi. Yozma topshiriqning ushbu turi talabalarning mavzuga doir o'z mustaqil fikrlarini ifodalay olishga yordam berish va o'qituvchiga o'z talabalari o'quv materiali bilan tanishganda qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor berishlari xususida fikrlash imkonini beradi. Esse yozish jarayonida o'quvchi mustaqil fikrlaydi, berilgan mavzuga oid xotirasida saqlangan bilimlarni eslaydi, lug'at boyligini

ishga solidi. Bu esa o'quvchining fikrlashi- tafakkuri bilan bir qatorda yozma nutq ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Yozma nutqni rivojlantirish og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u o'quvchilardan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog'liq. So'zni to'g'ri yozish, tinish belgilarini o'rinli qo'llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o'quvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ayrimlari sanab o'tilgan usullardan foydalanib darsni tashkil etish, O'zbekistonimizni rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi, ana shu jamiyatni quruvchi, uning kelajagiga xizmat qiluvchi, saviyasi yuksak, hozirgi davr taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan malakali mutaxassislarga bo'lib yetishishlarini ta'minlovchi vositalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'ME, 2006-2008. – 5 tomli. II tom.
2. Abduqayumov Z. A. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari – Toshkent, Yangi asr, 2003.
3. Ziyodova T. Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish. O'quv metodik qo'llanma – Toshkent, 2002.
4. Ziyodova T. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish – Toshkent, 2000
5. Nazarova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi – Toshkent, 1992.
6. Nurmonov A. va boshqalar. Nazariy grammatika – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
7. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
8. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.
9. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.
10. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 4-91.
11. Сабирдинов, А. Г. (1993). Слово и образ в поэзии Айбека.

12. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
13. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. *International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies*. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. – P.33-39.
14. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lyrics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 656-664.
15. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – С. 245-249.
16. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.
17. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," *Scientific journal of the Fergana State University*: Vol. 2 , Article 12.
18. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.
19. Islomova, F. (2022). Ways to Develop Competence in Native Language Lessons. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 434-439.
20. Ibragimova, E. I., & Sharafutdinova, N. K. (2020). ТИПОЛОГИЯ РЕЧИ ДВУХ ГЕРОЕВ. *Theoretical & Applied Science*, (4), 682-686.
21. Porubay, I. F., & Ibragimova, E. I. (2021). ABOUT THE FEATURES OF SOCIAL MEDIA DISCOURSE (BASED ON THE EXAMPLES OF RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES). *Theoretical & Applied Science*, (12), 482-486.
22. Karimov, N. (2022). IMPORTANCE OF STUDYING AND PROMOTING ORIENTAL CULTURE AND HERITAGE. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 2(03), 28-33.
23. Karimov, N. (2022). THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE OF THE IX-XII CENTURIES IN THE EYES OF FOREIGN RESEARCHERS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 28-45.
24. Ibragimova, E. I., & Sharafutdinova, N. K. (2020). Typology of speech two heroes'. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 (84), 682-686.